

TUPROQNI MUHOFAZA QILISH VA UNING SIFATIGA OID EKOLOGIK  
ME'YORLASHNING HUQUQIY ASOSLARI

Shoxnazar Ochilovich Bobokulov

"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti "Yer resurslarini boshqarish" kafedrasi dotsenti, yu.f.n.

E-mail:bobokulov2504@gmail.com (+99890 905-50-04)

ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ОХРАНЫ ПОЧВ И ЭКОЛОГИЧЕСКОГО  
РЕГУЛИРОВАНИЕ ЕЕ КАЧЕСТВА

Шохназар Очилович Бобокулов

Национальный исследовательский университет «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства» доцент кафедры «Управление земельными ресурсами», к.ю.н., E-mail:bobokulov2504@gmail.com (+99890 905-50-04)

LEGAL BASIS OF SOIL PROTECTION AND ECOLOGICAL REGULATION OF  
ITS QUALITY

Shokhnazar Ochilovich Bobokulov

"Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Yengineers" National Research University Candidate of Law, Dotcent of the "Land Resources Management"

E-mail:bobokulov2504@gmail.com (+99890 905-50-04)

*Annotatsiya* Maqolada tuproqni muhofaza qilish va uning sifatiga oid ekologik me'yorlashning huquqiy asoslari to'g'risida mulohaza yuritilgan. Shuningdek, sohaga oid qonuchilikni takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar berilgan.

**Аннотация** В статье рассматриваются правовые основы экологического регулирования охраны почв и ее качества. Также были даны предложения и рекомендации по совершенствованию законодательства, касающегося отрасли.

**Annotation** The article discusses the legal basis of environmental regulation of soil protection and its quality. Also, proposals and recommendations on improving the legislation related to the sector were given.

**Kalit so'zlar** – Yer, yer uchastkasi, tabiiy resurs, qonun, qaror, tuproq unumdorligi, ekologik me'yorlar, yerlarni muhofaza qilish, yerni ro'yxatga olish, tuproqning gumus miqdori.

**Ключевые слова** - Земля, земельный участок, природный ресурс, закон, постановление, плодородие почвы, экологические нормы, охрана земель, земельная перепись, содержание гумуса в почве.

*Keywords - Land, land plot, natural resource, law, decision, soil fertility, environmental norms, land conservation, land registration, soil humus content.*

So‘nggi yillarda respublikamizda yerlardan oqilona va samarali foydalanishni tashkil etish, ta'sirchan nazoratni ta'minlash va yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr sohasida munosabatlarni kompleks tartibga solishda bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 sentyabrdagi “Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6061 –son Farmoni qabul qilindi. Ushbu yo‘nalishdagi islohotlarni izchil davom ettirish, yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarning to‘liq davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta'minlash, yer va kadastr sohasida davlat nazorati samaradorligini oshirish, sohada yangi standartlarni joriy qilish maqsadida 2022 yil 20 oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-405-son qarori qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 dekabrda “Yangi O‘zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-269 son Farmoniga muvofiq Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining tashkiliy bo‘ysunuvi o‘zgartirilib, Iqtisodiyot va moliya vazirligi bo‘ysunuviga o‘tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 20 fevraldagi “Qishloq xo‘jaligi yerlari unumdorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 97-son qarori qabul qilinishi ushbu sohada muhim ahamiyat kasb etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 13 fevraldagi PQ-71-son qarori bilan 2024-2025 yillarda tajriba tariqasida paxta maydonlarida tuproq unumdorligi va hosildorlikni, shu jumladan tuproqning gumus miqdorini oshirish bo‘yicha agrotexnik tadbirlar uchun yerdan foydalanuvchilarga Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan har bir gektar maydonga 1 mln so‘mdan subsidiya ajratilishi belgilab qo‘yildi.

Tuproq unumdorligini oshirish, mavjud yer resurslaridan samarali foydalanish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini ko‘paytirish maqsadida hujjat bilan quyidagilar tasdiqlandi:

□2024-2025 yillarda paxta maydonlarida tuproq unumdorligi va hosildorlikni oshirish uchun subsidiya ajratish tajribasi o‘tkaziladigan tumanlar ro‘yxati;

□Paxta maydonlarida tuproqning gumus miqdori va unumdorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi.

Shuningdek, hujjat bilan paxta maydonlarida tuproq unumdorligi va hosildorlikni oshirish bo‘yicha agrotexnika tadbirlari uchun subsidiya ajratish tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom tasdiqlandi. U quyidagilarni nazarda tutadi:

□subsidiya ajratish shartlari;

□subsidiya olish xohishini bildirgan

□yerdan foydalanuvchilarning ro‘yxatini shakllantirish tartibi;

□ilmiy asoslangan agrotexnika tadbirlarini amalga oshirish rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi;

□subsiyia ajratish bo'yicha talab etiladigan hujjatlar, ularni ko'rib chiqish hamda subsidiya ajratish to'g'risidagi qarorni qabul qilish tartibi;

□paxta maydonlarida tuproq unumdorligi va hosildorlikni oshirish bo'yicha agrotexnika tadbirlarini nazorat qilish tartibi.

Yer sohasiga oid ekologik me'yorlarga qishloq va o'rmon xo'jaligida ishlatiladigan kimyoviy moddalarning miqdor me'yorlari yoki ayrim ob'ektlarning qurilishi uchun yer uchastkalarini ajratishda qo'llaniladigan me'yorlar, tuproqni muhofaza qilish sohasida me'yorlar, tuproqni neft mahsulotlari, og'ir metallar, sanoat va maishiy chiqindilar, qishloq va o'rmon xo'jaligini kimyoviy vositalari bilan ifloslanishini kamaytirishga hamda tuproq eroziyasini, sho'rlanishi va b. salbiy jaryonlarning rivojlanishini oldini olishga qaratilgan me'yorlar taalluqli [4].

Tuproq unumdorligini saqlamasdan, uni oshirmasdan, yerga o'z vaqtida ishlov bermasdan turib, yer tirik vujud sifatida talab qiladigan barcha zarur tadbirlarni amalga oshirmasdan yaxshi natijalarga erishib bo'lmaydi.

Shuningdek, tuproqni muhofaza qilish sohasidagi me'yorlarga ifloslantiruvchi moddalarning yo'l qo'yiladigan darajada to'planishi va sanitar – gigienik me'yorlar me'yorlar kiradi [6].

Tuproqlarning sifat normativlari avvalo qishloq xo'jaligi yerlari uchun belgilanadi. Tuproqlarning holati ustidan nazoratni amalga oshirish uchun tuproqlarga yo'l qo'yiladigan ta'sir darajalarini, ularning holatini, istiqbolini, ifloslantiruvchi moddalar tarkibini aniqlash, namunalari olish va boshqa uslublarini ishlab chiqish eng ustuvor masala hisoblanadi.

Yerlarni muhofaza qilish sohasida me'yorlar ikkita asosiy yo'nalishga ega, birinchidan – sanoat, uy-joy qurilishi, foydali qazilmalarni qazib olish va qayta ishlash uchun hamda boshqa maqsadlarda yerlarni ajratib berishni tartibga solish yo'li bilan yer fondidan oqilona foydalanishni ta'minlash; ikkinchidan, insonlarning ishlab chiqarish faoliyati natijasida rekultivatsiya orqali buzilgan yerlarning holatini yaxshilash [7].

Ma'lumki, qishloq xo'jaligida pestitsidlarni keng qo'llash ijobiy samara berishi bilan bir qatorda, bir necha salbiy holatlarga ham olib keladi, ya'ni atrof tabiiy muhitga zararli ta'sir ko'rsatiladi. Shuningdek, pestitsid qoldiqlarining tuproq, suv, havo va o'simliklarda to'planishi va aylanishi keyinchalik olinadigan qishloq xo'jalik mahsulotlarga, insonlarga hamda hayvonlarga zararli ta'sir ko'rsatadi. Bunda agrokimyoviy xizmatni tashqil qilish orqali pestitsidlarning to'planishiga yo'l qo'ymaydigan ularni qo'llash reglamentlari va me'yorlarini belgilash hamda yerdan foydalanuvchilar tomonidan pestitsidlarni qo'llanilishi nazorat qilinadi.

Qishloq xo'jaligi o'simliklarini kimyoviy himoya qilish vositalari hamda mineral o'g'itlardan ko'r-ko'rona foydalanish, ularni bevaqt va noto'g'ri ishlatish, ortiqcha sarflash nafaqat kutilgan samarani bermasligi, aksincha tuproq holatining yomonlashuvicha, atrof tabiiy muhitni ifloslanishiga va inson salomatligiga jiddiy ziyon etishiga sabab bo'lmoqda. Bunday holatlarni oldini olish uchun, agroximik qoidalarga qat'i amal qilishga talabchanlikni oshirish, ularni qo'llash madaniyatini yuksaltirish lozim.

Shuningdek, tuproqda pestitsid qoldiqlarini nazorat qilishda ularning fizikaviy, kimyoviy, gigienik va toksikologik xususiyatlari hisobga olinadi. Qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan pestitsidlar xavflilik darajasiga qarab uchta guruhga bo'linadi va gerbitsidlar (begona o'tlarni yo'kotadigan ximyaviy moddalar) hamda fungitsidlar eng ifloslantiruvchi moddalar guruhiga kiradi [8].

Tegishli adabiyotlarda ta'kidlanishicha, pestitsid qoldiqlarini aniqlashda preparatning foydalanilayotgan maydondagi qoldiqlarining o'rtacha miqdori hisoblab chiqiladi. Olingan ma'lumotlar kartosxemalarda aks ettiriladi va natijada har bir maydondagi pestitsid qoldiqlari yo'l qo'yiladigan darajalar miqdorlari bilan solishtiriladi. Pestitsid qoldiqlari to'g'risida ma'lumot olinishi maqsadga muvofiq, unda odatda, ikkita ko'rsatkich olinadi. Pestitsidni belgilangan me'yorda qo'llagandan so'ng uning qoldig'i o'lchanadi va u birlamchi ma'lumotlarni tashqil etadi. Keyinchalik, uning qoldig'i nolga yoki bezarar boshqa miqdorga tushishi lozim bo'lgan, belgilangan ma'lum bir vaqt o'tgach, ma'lumot yig'iladi.

Tuproqlardagi pestitsid qoldig'i bo'yicha yo'l qo'yiladigan to'planish darajalarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etib, bunda nafaqat pestitsidning turi, balki tuproqning turi, gegienik hamda keyingi ekiladigan o'simliklarga toksik ta'sir ko'rsatish xususiyatlari inobatga olinadi.

Umuman olganda, har bir turdagi pestitsidlarning har xil turdagi tuproqlardagi qoldig'ini nazorat qilishning yagona uslubi mavjud emas hamda uni yaratib ham bo'lmaydi. Ammo, ekologik xavflilik darajasini aniqlashga oid yagona talablar qo'yilishi, ushbu masalani pestitsid qoldiqlarini aniqlash bo'yicha uslublar standartlarini tasdiqlash yo'li bilan hal qilish mumkin.

Rossiya Federatsiyasida tuproqlarni muhofaza qilish sohasida quyidagi standartlar ishlab chiqilgan: namunalar olish uslublari standarti; tuproqning fizikaviy va kimyoviy xususiyatlarini aniqlash uslublari standarti; eroziyalanishga qarshi kurashish majmualarini loyihalashtirish uslublari standarti; nazorat asbob - uskunalari bo'yicha standart; tuproqlarning yuvilib ketish me'yorlari [8].

Mamlakatimizdagi ushbu soha olimlarining xulosasiga ko'ra, tuproqdagi pestitsidlar qoldig'i bo'yicha yo'l qo'yiladigan to'planish darajalarini hamda standartlarni farqlab, standartlar faqat nazorat qilish uslublari uchun belgilanishi lozim deb hisoblaydilar [9].

Tuproqlarni eroziyalanishdan himoyalash sohasida standartlashtirish eroziyalanishga xavfi bo'lgan yerlardan oqilona foydalanish; eroziya jarayonlarining vujudga kelishining oldini olish tuproq eroziyasining yanada rivojlanishining oldini olish; eroziyalangan tuproqlarning hosildorligini oshirish; eroziyalangan tuproqlarning monitoringini va ular ustidan nazoratni muvofiqlashtirish; eroziyalarga qarshi kurashish bo'yicha loyihalarga talablar belgilash; eroziya jarayonlarining vujudga kelishi va rivojlanishiga sabab bo'layotgan tabiiy va xo'jalik omillarining yagona ko'rsatkichlar tizimini belgilash; izlanish va ma'lumotlar aniqligini olish yagona uslublarini ishlab chiqish; yagona klassifikatsiya, terminlar va kodlashtirish tizimini yaratish masalalarini echishi lozim.

Eroziyalanishning asosiy sabablaridan biri bo'lib mol boqish natijasida yaylovlarning o'simlik dunyosini kamayishi va chorva mollari tomonidan tuproq tarkibini changlatish

natijasida buzilishi hisoblanadi. Shuning uchun yaylov tepaliklarida mol boqish me'yorlarini joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, inson faoliyati natijasida hosil bo'lgan texnogen ifloslanish yoki qishloq xo'jaligi sohasida qo'llaniladigan kimyoviy moddalar natijasida tuproqda bir muncha ko'p zararli moddalar yig'iladi. Barcha kimyoviy moddalar tuproqqa tushganidan so'ng unda to'planadi, ma'lum bir sharoitda esa migratsiya qilib yer osti suvlariga yoki o'simliklar ichiga tushadi. Natijada inson salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, uni bartaraf etish maqsadida esa tuproqning ifloslanish darajasi o'rganiladi va sanitar-normativ hujjatlar ishlab chiqiladi.

Umuman olganda, kimyoviy moddalar nafaqat tuproqning hosildorligini oshiradi, balki uni zararkunandalar va kasalliklardan himoya qiladi hamda qishloq xo'jalik mahsulotlari va ularning sifatini saqlab qolinishini ta'minlaydi. Bir guruh olimlarning fikriga ko'ra, pestitsidlarga belgilangan standartlardagi talablar qo'yidagilarni o'z ichiga oladi: qishloq xo'jaligida qo'llash imkoniyatini yaratayotgan inson va hayvonlar uchun kam toksikligi; tashqi muhitning oddiy sharoitlarida bir vegetatsion davrda inson va hayvonlar uchun zararsiz moddalarga parchalanish xususiyatiga ega bo'lishi; qo'llash, saqlash va tashish qulayligiga ega bo'lishi; qo'llashda yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega bo'lishi [10]. Misol uchun, qishloq xo'jaligida faqat ruxsat etilgan kimyoviy moddalarni belgilangan miqdorlarda qo'llash mumkin.

Mutaxassislarining fikricha tuproqni ifloslantiruvchi va inson salomatligiga xavf xavf soluvchi ifloslantiruvchi moddalarni uchta sinfga ajratish lozim.

- 1-sinf – yuqori xavfli;
- 2-sinf – o'rtacha xavfli;
- 3-sinf kam xavfli moddalar.

Sinflarga mansubligini aniqlashda toksikligi, saqlanib qolish muddati, suvga, havoga, o'simliklarga o'tib ketish darajasi, oziq-ovqatlarning holatiga ta'sir ko'rsatishi kabi xususiyatlar inobatga olinadi. Masalan 1-sinfga margimush, simob kabi moddalar va pestitsidlar, 2-sinfga kobalt (kumush rangli metall), marganets kabi moddalar, kaliy va azot mineral o'g'itlari, 3-sinfga esa fosfor va mineral o'g'itlarni kiritilishi mumkin. Ammo, zararli moddalarning xususiyatlari tuproqda har xil namoyon bo'ladi.

Tuproqda toksik moddalarning yo'l qo'yiladigan to'planish darajalarini aniqlashda tuproqning o'z-o'zini tozalash xususiyatining buzilishini, tuproq orqali yer osti suvlarining, atmosfera havosining va o'simliklarning ifloslanishini nazarda tutib, ularni oldini olishni hisobga olib ish tutiladi.

Toksik (zaxarli) moddalarning yo'l qo'yiladigan to'planish darajalari deganda, ushbu moddaning ma'lum bir muhitda uning eng yuqori miqdori (limiti) tushuniladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, rekultivatsiya qilinayotgan va kam hosildor yerlarga unumdor qatlamni solish me'yorlari o'rtacha 10-15 santimetrni, ayrim holatlarda esa 60 santimetrni tashqil etadi. Qatlamning qalinligi qanday yerlar rekultivatsiya qilinayotganligi, rekultivatsiya qilingan yerlar qanday maqsadlarda foydalanishi, solinayotgan tuproqning tagidagi qatlamlarning va solinayotgan jinslarning sifati va qalinligi bilan bog'liqdir.

Ayni damda biz yer sohasidagi qonun hujjatlari normalarini takomillashtirish istiqbollari o'ld bir necha ustuvor yo'nalishlarni ajratib ko'rsatishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

Birinchidan, yer qonunchiligining yerlarning huquqiy muhofazasiga oid normalarini o'rganish asosida ularning asosan yerlarning degradasiya va boshqa zararli ta'sirlardan muhofaza qilish hamda salbiy xo'jalik ta'siriga uchragan yerlarni qayta tiklashga qaratilganligini kuzatishimiz mumkin. Vaholanki, unda insonlar faoliyati natijasida salbiy ta'sirga uchramagan yerlarning, ayniqsa, tabiiy kuchlar (toshqin, cho'llanish va b.q.) salbiy ta'siri ostida bo'lgan yerlarning unumdorligini oshirish masalalari tartibga solinmagan. Ushbu kamchilikni bartaraf etish maqsadida Yer kodeksida mazkur masalalarga bag'ishlangan hamda ularning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi alohida modda kiritilishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, hozirgi kunda yerlarning xususiylashtirilishi, yer ipotekasi borasida sezilarli ishlar amalga oshirilayotganligini hisobga olgan holda, shunday munosabatlar ob'ekti bo'lgan yer uchastkalarini huquqiy muhofaza qilish choralarini ham qonunchilikda mustahkamlash zaruriyati tug' ilmoqda. Shuningdek, yer bilan bog'liq shartnomalarni tuzish, ularni amalga oshirish, ular bilan bog'liq yuridik oqibatlarining kelib chiqishiga oid yuridik normalarning takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, tuproq yerning unumdor qatlami va umuman qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etkazib beruvchi asosiy organik moddalarni saqlovchisi ekanligini hisobga olgan holda Yer kodeksida tuproq unumdorligini saqlash va oshirishga bag'ishlangan alohida bob kiritilishi maqsadga muvofiq. Ushbu bob doirasida tuproq unumdorligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari, tuproq unumdorligini ta'minlash sohasida davlat va hududiy dasturlar, tuproq unumdorligini ta'minlash ustidan nazorat, tuproq unumdorligini me'yorlash, tuproq va agrokimyo xizmatini ko'rsatish, tuproq unumdorligini ta'minlash sohasidagi faoliyatni moliyalash, tuproq unumdor qatlamini sidirib olish va saqlash kabi masalalarni tartibga solish zarur.

To'rtinchidan, yerlarni muhofaza qilishning muhim tadbirlaridan biri yerlarni rekultivasiya qilish bo'lib, uning huquqiy ifodasi yer qonunchiligida o'z aksini topishi lozim. Shunga muvofiq, Yer kodeksining yerlarni muhofaza qilishga oid 11-bobida yerlarni rekultivasiya qilish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus modda kiritish zarur. Unda, foydalanish uchun yoki ijaraga berilgan qishloq xo'jaligi yerlari yoxud o'rmon fondi yerlarida foydali qazilmalar konlarida qazib olish, geologik qidiruv hamda boshqa ishlarni amalga oshiruvchi tashkilotlar bu yerlarda ko'rsatilgan ishlar yakuniga yetgach, yerlarni qishloq hamda o'rmon xo'jaligida foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish bo'yicha o'z hisoblaridan rekultivasiya qilish majburiyatini belgilash maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, bozor iqtisodiyoti sharoitida yerdan foydalanish va muhofaza qilishga oid qonunchilik o'ziga xos rivojlanish yo'lini bosib o'tmoqda va bu rivojlanish yo'li O'zbekiston tanlagan taraqqiyotning "o'zbek modeli"ga xos bo'lgan xususiyatlar bilan belgilanadi hamda mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim jihatlarini o'zida aks ettiradi.

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat yer kadastrini to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 1998 y. 9-son, 165-modda;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 sentyabrdagi "Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmoni;
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-405-son qarori;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 13 fevraldagi PQ-71-son qarori;
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 20 fevraldagi "Qishloq xo'jaligi yerlari unumdorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 97-son qarori.
6. Ikramov R., Boboqulov Sh. Yerlarni muhofaza qilishga oid huquqiy asoslarning takomillashuvi //Academic research in educational sciences. – 2021. – т. 2. – №. 5. – с. 1233-1239;
7. Sereligin V.M., Tonkopi N.I., Grigoreva T.I. Gigienicheskie pokazateli sanitarnogo sostoyaniya pochv. Nauchnie aspekti standartizatsii v oblasti oxrani prirodi i rasionalnogo ispolzovaniya pochv, zemel, landshaftov. Nauchnie trudi nauchno-issledovatel'skogo inskogo instituta standartizatsii. – Moskva: – 1996. 25s;
8. Vanin D.E., Rojkov A.G., Vaxiev G.I. Zashita pochv ot erozii. Nauchnie aspekti standartizatsii v oblasti oxrani prirodi i rasionalnogo ispolzovaniya pochv, zemel, landshaftov. Nauchnie trudi Vsesoyuznogo nauchno-issledovatel'skogo instituta standartizatsii. – Moskva: - 1996. 21 b;
9. Buriev X., Rizaev R. Osnovi standartizatsii, metrologii i sertifikatsii selskoxozyaystvennoy produkcii. Uchebник.–Tashkent: Mexnat,-1999. -78 b.